

Yo'ldosheva Mahbuba

Bozorova Aziza

Inoyatova Sanam

Ayubova Munavvar

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bu mavzuni tanlashdan maqsad shuki, Hozirgi vaqtdagi realiyalarning turlari haqida keng bayon qilinadi. Realiya davlatlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi va ularning lug'at boyligini oshirishda, milliy koloritni aks ettirishda tutgan o'rni izohlangan. Maqolani yanada mazmunli qilish maqsadida Realiya haqida olimlarning fikrlari ham bayon qilingan.

ABSTRACT: The purpose of choosing this topic in this article is to provide a broad description of the types of realities at the present time. Realia is related to the way of life, worldview and culture of the countries and its role in increasing the vocabulary and reflecting the national color is explained. In order to make the article more meaningful, the opinions of scientists about Realia are also stated.

Realiya (lotincha) "real" - "moddiy", "haqiqiy narsalar" degan ma'noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realiyalarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realiyalarni chuqurroq tadqiq etish va ularning milliy va tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o'rganish harakatlari XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Bu tilshunoslar orasida o'zaro bahs-munozaralarni keltirib chiqargan. Mazkur masalaning haqiqiy mohiyati diqqat markaziga olinmaganligi sababli asosiy to'xtamga kelisholmagan. Jumladan, M. L. Vaysburd realiyalarga

mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan to'xtalib, shunday ta'rif beradi: "Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxona yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat". Rus tarjimashunosligiga 1941-yili Andrey Fedorov kiritdi va ularni "realiya so'zlar" deb atashni taklif qildi. A.V.Fedorov "realiya" deganda "ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi", faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan so'zlar"ni tushunadi.[3,160] Realiyalar o'zga tildagi matnlarni tushunish uchun zarur bo'lgan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar tarixi va muhim tarixiy voqealari, madaniyati, xalq og'zaki ijodi, siyosiy hayoti haqida yetarlicha bilimga ega bo'lmaslik til bilimlari borasida kompetensiyani yo'qotishga olib keladi. A.D. Shveytser fikriga ko'ra, realiyalarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya'ni ular uchun begona bo'lgan tushunchalar hisoblanadi.[4,153] G'arb tarjima maktabi olimlaridan biri Pedersen realiyani umumiyligi foydalanishdagi asosiy ma'nosi tufayli juda noaniq va chalkash deya tanqid qiladi. Uning fikrlariga qaraganda, realiyaning asl nomlanishi ("real narsalar") ham haqiqatga ziddir. Realiya so'zlar mavhum tushunchalarni ham anglatishi mumkin. Realiyalar tilshunoslikda va tarjima nazariyasida muhim tushunchalardan biri bo'lib, ular bir madaniyatda mavjud bo'lgan, boshqa madaniyatlarda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan so'z yoki iboralarni anglatadi. Realiyalar turli madaniyat va jamiyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirganligi sababli, tarjima qilishda ularni to'g'ri anglash va izohlash muhimdir. Realiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Geografik realiyalar

Bu turdagagi realiyalar biror xalqning o'ziga xos tabiiy muhitini ifodalaydi. Geografik realiyalarga tog', daryo, ko'l, iqlim sharoitlari kabi tushunchalar kiradi.

Misol: O'zbekistondagi "Amudaryo", "Qizilqum" kabi nomlar boshqa madaniyatlar uchun begona realiyalar bo'lishi mumkin.

2. Etnografik realiyalar

Bu realiyalar biror xalqning madaniy hayoti, turmush tarzi va urf-odatlariga xos so‘zlar va iboralarni o‘z ichiga oladi.

Misol: "Sumalak", "do‘ppi", "beshik" kabi so‘zlar etnografik realiyalarga misol bo‘ladi.

3. Ijtimoiy realiyalar

Ijtimoiy realiyalar biror xalqning jamiyat tuzilmasi, huquqiy tizimi va ijtimoiy institutlari bilan bog‘liq so‘zlar va atamalarni ifodalaydi.

Misol: O‘zbekistondagi "mahalla", "xokim" kabi atamalar.

4. Madaniy realiyalar

Bu turdagи realiyalar madaniyat, san’at, sport va ma’rifatga bog‘liq bo‘lib, milliy madaniyatning o‘ziga xos unsurlarini ifodalaydi.

Misol: "Navro‘z", "maqom", "palov" kabi tushunchalar.

5. Tarixiy realiyalar

Tarixiy realiyalar biror millat yoki jamiyatning tarixiy hodisalari, voqealari yoki shaxslarining nomlarini ifodalaydi.

Misol: "Temuriylar", "Alpomish", "So‘g‘diyona".

6. Diniy realiyalar

Bu realiyalar diniy marosimlar, tushunchalar va atamalarni o‘z ichiga oladi. Ular ko‘pincha boshqa madaniyatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmaydi.

Misol: "Ro‘za", "iftor", "masjid".

Realiyalar tarjimada diqqat bilan qo‘llanishi kerak, chunki ularni noto‘g‘ri tarjima qilish, matnning mazmunini buzishi yoki noto‘g‘ri talqinlarga olib kelishi mumkin.

Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romanidagi o‘zbek xalqiga mos realiyalarni misol qilib keltiramiz. Hozir ulardan bir nechta bilan tanishib chiqamiz:

Andi-(173- bet) 1.Boshqa joydan kelib o‘rnashib qolgan; kelgindi.2. Tagi, zoti past (zodagonlar, boylar nazarida).

Choydish- (181- bet) Suv, choy qaynatiladigan metall idish, qumg‘on.

Xon -(155- bet) 1. tar. Turkiy va mo‘g‘ul xalqlari hukmdorlari unvoni.2. tar. Xonlik qilgan, xon lavozimidagi shaxs ismiga qo‘silib, unvon ifodalaydi.3. Erkak va ayollar ismiga qo‘silib, hurmatni ifodalaydi.

Atlas -(177- bet) Bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama.

Mursak -(178-bet) 1. Ayollar kiyadigan yengi kalta ustki milliy kiyim; yengsiz kamzul.

Sallacha -(178- bet) 1. Salla I so‘zidan kichraytirish shakli.2. Boshga tang‘ib o‘raladigan chog‘roq ro‘mol.

Barkash -(181- bet) 1. Jez yoki misdan tayyorlanadigan va patnis o‘rnida ishlatiladigan, doira yoki to‘rburchak shaklidagi ro‘zg‘or asbobi.2. (ko‘chma)To‘garak, gardish, yumaloq, doirasimon.

Qimiz -(182- bet) Biya sutidan maxsus idishlarda bijg‘itish yo‘li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlik.

Mashshoq -(123- bet) Xalq cholg‘u asboblarida musiqa asbobi chaluvchi sozanda.

izg‘iriq -(125- bet) Izg‘irin

Kundash - (94- bet) Bir er nikohidagi bir necha xotin (bir-biriga nisbatan).

Paranji - (54- bet) etn. Ko‘pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko‘rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to‘n shaklidagi, soxta yengli yoping‘ich (yuz chachvon bilan berkitiladi).

Shinni- (3- bet) Tut, uzum kabi mevalar shirasini qaynatib tayyorlanadigan qiyom.

Joynamoz-(16- bet) Namoz o‘qish uchun solinadigan maxsus gilamcha, palos, mato va shu kabilar

Namoz-(20- bet) Musulmonlarning kuniga besh mahal qilinadigan ibodatlari majmui va ularning har biri.

Childirma-(30- bet) Yog‘och gardishga teri qoplab yasalgan, chertib chalinadigan musiqa asbobi; doira, chirmanda, daf.

Chimildiq-(28- bet) ayn. Go‘sanga.

Po'stin-(29-bet) Mo'ynali oshlangan teridan tikilgan uzun, issiq ustki qishlik kiyim.

Nisholda-(28- bet) Tuxumning oqini yetmak bilan ko'pirtirib va shakar qiyomi qo'shib tayyorlanadigan ko'piksimon quyuq oq shirinlik.

Rafiqo-(26- bet) 1. 1 Dugona, o'rtoq, do'st.2. Umr yo'ldoshi, xotin, yor.

G'ijjak-(28- bet) Sim torli, qorinchasiga maxsus teri qoplangan, kamoncha bilan chalinadigan musiqa asbobi.

Sovchi-(23- bet) etn. Uylanuvchi yigit tomonidan biror xonadonning voyaga yetgan qizini ko'rish va uni kelin qilib berishga qiz tomon roziligini so'rash uchun vakil qilingan kishi.

XULOSA

Realiyalar til o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Realiyalar deganda til bilan bog'liq bo'lgan, ammo shu tilni qo'llaydigan xalqning hayoti, madaniyati, urf-odatlari, va ijtimoiy jihatlariga xos bo'lgan tushunchalar nazarda tutiladi. Ular orqali til o'rganayotgan shaxs o'sha jamiyatning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini ham o'rganib boradi. Shu tarzda, tilni nafaqat grammatika yoki lug'at orqali, balki uning ortidagi madaniy meros va tarixiy jarayonlar orqali ham puxta o'zlashtirish mumkin. Bu yondashuv tilni yanada chuqurroq va mazmunli o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Realiya_\(tarjima\)#cite_ref-1](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Realiya_(tarjima)#cite_ref-1)

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.: Междунар. отношения, 1975.
2. Вайсбурд М. Л. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом. 1972 №3. С. 98-100.
3. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М.: Высш. шк., 1983.
4. Швейцер А.Д. Теория перевода, статус, проблемы, аспекты. М.: Наука, 1988.